



KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA YOZISHNI ÒRGATISH METODIKASI

Rashidova Madina Usmon qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali
Boshlanğich ta'lif yònaliishi 122 - guruh 2 kurs talabasi

88 395 03 22

Ilmiy rahbar: Zubaydova Nilufar

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalarni husnixatga o'rgatishdan asosiy maqsad kichik yoshdagi maktab o'quvchilarga yozishdek murakkab va juda kerakli bo'lgan jarayonni o'rgatishva bu jarayonni o'quvchiga qiziqarli va maroqli o'tkazishning yangicha metodlari xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: alifbe, yozuv, maktab, sinf, tayyorgarlik, mashq, to'g'ri, noto'g'ri, harf, bo'g'in.

Hozirgi kunda bolaning barkamol bo'lib shakllanishi ko'p jihatlar bilan chiroli yozuvga ham bog'liq. Chiroli yozish qadim o'tmishdan san'at darajasiga ko'tarilganligi bejiz emasdir. Yozuv orqali bolalar boshqa fanlarni muvaffaqiyatli darajada o'zlashtirishlari bo'ladilar. Bolani husnixatga o'rgatishdan asosiy maqsad kichik yoshdagi o'quvchilarga yozishdek murakkab jarayonni o'rgatish orqali, ularning chiroli yozuv malakalarini mustahkamlash va rivojlantirishdan iboratdir. Husnixatning oldiga bir qancha vazifalar qo'yiladi. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib o'quvchilarni aqliy jihatdan yetuk bo'lib rivojlantirishga, ularning atrof-muhit haqidagi bilim va ko'nikmalarini kengaytirishga, axloqiy va estetik didini tarbiyalashga, ongli o'qish va yozish malakalarini hamda yozuv daftarlari bilan ishslash ko'nikmalarini shakllantirib borishdan iborat hisoblanadi. Ushbu vazifalarning barchasi o'zaro bog'liq tarzda amalga oshiriladi. Ularni hal qilish zaruriy yozuv malakalarini egallashga darslikda berilgan o'quvchilar saviyasiga mos nazariy va amaliy materiallar uyg'unlashtirilib, o'zlashtirish ustida ishslashni maqsadga muvofiq uyushtirish, shuningdek, matnlar sifatini, topshiriqlar xususiyatini va bolalar aqliy faoliyatining oziga xos tomonlarini belgilaydigan qator usuliy shart-sharoitlarga bog'liq.

Kichik yoshdagi bolalarning alifbegacha tayyorgarlik davrining muhim vazifalaridan o'quvchilarni maktab, sinf bilan, tartib-intizom qoidalari bilan tanishtirishdir. Ularga nutq, og'zaki va yozma nutq haqida, gap, nutqning gaplardan tuzilishi, gaplarning so'zlardan tuzilishi; bo'g'in, so'zlarning bo'g'inlardan tuzilishi, so'zlarning bo'g'inlarga bo'inishi; tovush, bo'g'inlarning tovushlardan tuzilishini; tovushlarning unli tovush va undosh tovushlarga ajratilishini o'rgatish, ulardan amaliy foydalana bilish kunikmalarini hosil qilishdan iborat. Bu davrda maxsus nuxxalar asosida o'quvchilarning bog'inli nutqi ustida ishlanadi. Ularga «Alifbe»da ko'rsatilgan turli rasmlar yordamida hikoyalar tuzdirishdan tashqari, o'zları bilgan she'r, ertak, hikoya, tez aytish, maqol, topishmoq, xalq ashulalari, alla, qo'shiqlar, latifalardan ayttirish kerak. Tayanch so'zlar yordamida gap tuzdirish, «Alifbe» sahifalaridagi so'zlar, ularning ma'nolari ustida ishslash kabi ishlar uyushtiriladi. (Bu tarzdagi ishlar har bir darsda mavzularga bog'iq ravishda izchil davom ettirib boriladi.) Bu bosqichdagi yozuv darslarida o'quvchilarda daftar bilan, yozuv chiziqlari bilan tanishtirish, harf elementlarini yozishga o'rgatish, namunaga qarab grafik xatolarini aniqlash-o'z-o'zini tekshirish, harf oralarining tengligiga rioya qilish kabi ko'nikmalar hosil qilinadi. Alifbegacha bo'lган davrda bolalar uchun tayyorgarlik mashqlarini tashkillashtirish. O'quvchilarga boshlang'ich sinfdalik vaqtidan harflarning shaklini to'g'ri yozishga o'rgatish o'qituvchidan ham, o'quvchilardan ham ko'p mehnat talab qiladigan vazifadir. O'quvchi har bir harfnинг tuzilishini, yozilishini ko'rishi va tasavvur hosil qila olishi kerak. O'qituvchi esa o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni aniqlashi va uni o'sha vaqtning o'zida tuzatish yo'larini belgilashi va bolaga to'g'ri tushuntirishi lozim. O'quvchi va o'qituvchi tomonidan ham har bir harfnинг aniq yozilishiga erishish, buning uchun ko'p mashq qilish kerak bo'ladi. Dastlabki davrda o'quvchi tomonidan yozish sur'ati sekin bo'ladi, keyinchalik o'quvchilarning ko'nikmalari mustahkamlanib borgani sayin harflarning yozilish shaklini yaxshi o'zlashtirib olganlaridan so'ng yozuvning tezligi ortadi. Harflarning shaklini alohida alohida tushuntirishda dastlab doskaga yozib ko'rsatish samarali



natija beradi. Buning uchun albatta o‘qituvchining o‘zi ham yaxshi yoza oladigan va bu borada kerakli bilim va ko’nikmalarga ega bo’lgan bo’lishi zarur. Agar o‘qituvchi bir harfni bir safar boshqa shaklda, ikkinchi safar yana bir boshqacha shaklda yozib ko’rsatsa, bu holat o‘quvchilarning ikkilanib qolishlariga va xatoga yo‘l qo‘yishlariga sabab bo’ladi. O‘quvchi to‘g’ri yoki noto‘g’ri yozilgan harflarni bir-biridan ajrata olishi, ulardagi asosiy kamchiliklar nimadan iborat ekanligini ko‘rsata olishi lozim. Shuning sabab ham o‘quvchilarda harfning shaklini analistik ko‘rish malakasini rivojlantirib borish talab etiladi. Analistik ko‘rish malakasi faqat to‘g’ri va noto‘g’ri yozilgan harflarni solishtirish orqali o‘stirib boriladi. O‘qituvchi o‘rgatmoqchi bo’lgan harfning shaklini va yozilish tartibini doskada ko‘rsatib bergandan so‘ng o‘quvchilarga 2-3 qator mustaqil yozishga ruxsat etishi mumkin. Bu vaqt ichida o‘qituvchi sinfni aylanib, o‘quvchilarning yozuvini tekshirib chiqishi va xato yozayotgan o‘quvchilarning yozuvlaridan bittasini namuna uchun tanlab olib, doskada o‘quvchi qanday xato yozgan bo‘lsa, o‘qituvchi ham shunday shaklda yozib ko‘rsatadi. Agar o‘quvchilar o‘z o‘rtoqlarining yo‘l qo‘ygan xatosini ko‘rsalar, shu ondayoq qo‘l ko‘tarib, uni tuzatishga harakat qiladilar. Agar o‘quvchi harfni juda ham noto‘g’ri yozgan bo‘lsa, o‘quvchilar taajjublanadilar va unga tanqidiy nazar bilan qaraydilar. Shunday tanqidiy munosabatning o‘zi ko‘p xatolarning oldini olishga yordam beradi. Ammo hamma vaqt ham bu samarali natija beradigan jarayon emasdir. Chunki bola psixalogiyasi juda nozik bo‘lib unga aytilgan tanqid va shunga o‘xshash holatlar bola miyasida tramvalar hosil qilishi dars jarayoniga qiziqishini yo‘qotishi mumkin. Shu sababdan yoshlikdan bolani boshqalarni tanqididan xulosa chiqarishga emas o‘zi to‘g’ri qaror qabul qilaolishiga o‘rgatish kerak. Bolani xatosini o‘qituvchi boshqalarga oshkor qilmasdan o‘zi shunchaki namuna sifatida doskada ko‘rsatib shunday holatlarda qanday yo‘l tutish kerakligini bolaga oddiyroq usulda tushuntirishi kerak. Qoida bo‘yicha o‘quvchilar harflarni elementlarga ajratib yozmasalar ham, har bir harfning qanday elementlardan tuzilganini, yozayotganda ruchkani qaysi tomonga harakat qildirishni, qayerda burilish bo‘lishini, qaysi elementi qanday qiyalikda yozilishini yaxshi bilishlari kerak. Bu esa o‘quvchilarga harflarning shaklini yana ham chuqurroq o‘zlashtirib olishga katta yordam beradi. 1-sinfda bolalar uchun yozuv mashqlarini tashkil etish birmuncha murakkab bo‘lib, bir necha xil vazifani o‘z ichiga oladi: bolalar o‘qituvchining so‘zini tinglaydilar, doskaga yozgan harf va so‘zlarni ko‘rib boradilar, ayrim matnlarni ko‘chirib yozadilar, so‘z va bo‘g‘inlarni tahlil qiladilar va hokazo. Har bir yozuv mashg‘ulotini boshlashdan oldin hamda butun dars jarayonida ham o‘quvchilarga to‘g’ri o‘tirish qoidalari eslatib turish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonlarning barchasida o‘qituvchiga sabrli va xushmuomila bo‘lish talab qilinadi. Bu masalani oson hal etishning yana bir yo‘li sinfga to‘g’ri o‘tirish qoidalari ko‘rsatilgan ko‘rgazmalarini osib qo‘yishdir. O‘quvchilarda chiroyli, aniq va toza yozishga qiziqish va muhabbat uyg‘otish uchun birinchi navbatda o‘qituvchining o‘zi chiroyli yozishi lozim. 1 sinfda o‘qish darslarida o‘quvchilar tovushlar va bosma harflar bilan tanishtirilsa, tovush va harflarni analiz va sintez qilish orqali ularning nutqiy jarayoni rivojlantiriladi. Shu kabi yozuv darsining ham ayrim spetsifik xususiyati bor. Masalan, agar o‘quvchilar o‘qish darsida «Alifbe» kitobidagi tayyor bosma harflardan foydalansalar, yozuv darsida esa bu narsa mutlaqo ko‘rinmaydi. Har bir harf va uning elementini o‘quvchining o‘zi namunaga qarab yozadi. Shuning uchun ham bu sinfda yozuvga o‘rgatish o‘z navbatida quyidagi kabi qator tushunchalarini bilishni talab etadi: baland-past, bir xil, keng-tor, yaqin-uzoq, yuqoriga, pastga, o‘rta (oraliq), uzunroq-kaltaroq, teng, teng bo‘magan masofa, to‘g’riqiya, chapga-o‘ngga. O‘qituvchi bolani yozuv malakasiga o‘rgatishni boshlashdan avval o‘quvchilar bilan yuqoridaq ko‘rsatib o‘tilgan tushunchalar ustida ish olib borishi zarur. Bu o‘quvchilarga harflarning shaklini uning harakatini yaxshi tushunishlariga katta yordam beradi. 1-sinfda yozuv mashqlari uchun berilgan alifbegacha bo‘lgan davrni birmuncha uzaytirish mumkin. Ammo bu davrda yozuv darsi bilan o‘qish darsi o‘rtasida birmuncha farq bo‘ishi mumkin, bundan cho‘chimaslik kerak, chunki bu vaqtda o‘quvchilar so‘z va harflarni o‘tilgan materiallar asosida yozib o‘rganadilar. Keyinchalik esa o‘qish bilan yozuv darsi bir-biri bilan uzviy bog’langan holda davom etadi.



REFERENCES :

1. Y.Y. Azimov, R.A.Qo'ldoshev. «Husnixatga o 'rgatishning amaliy asoslari» (Metodik qo'llanma)- Toshkent. «Turon Zamin Ziyo» nashriyoti, 2017.-132 b.
2. Safarova R., M. Inoyatova, M. Shokirova, L. Shermamatova "Alifbe" (qayta ishlangan 16-nashri). Toshkent. "Ma'naviyat" 2018 yil.
3. Avezmurodovich O. R. Difficulties in learning to write and read left-handed children //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (8), 40. – 2020. – T. 45.
4. Qo'ldoshev R. CHAPAQAY BOLALARNI MAKTABGA QANDAY TAYYORLASH KERAK? //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 2. – №. 2.
5. Qoldoshev, Avezmurodovich Rustambek, and Farhodqizi Gulruh Yodgorova. "How to find out right or left." Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) 10.1 (2021): 154-163.
6. Qo'ldoshev A. R. G'aforovna Habiba Jumayeva.(2021). Forming Writing Skills in Left-Handed Students. Middle European Scientific Bulletin, 10 (1).
7. Quldoshev, R. A. "Assistant pedagogue to children left-handed reading in the last year." Globe Edit.–2020 (2020).
8. Qo'ldoshev A. R. Psychological aspects of left-handedness: concept, causes, and peculiarities //Psychology and Education Journal. – 2021. – Т. 58. – №. 1. – С. 4981- 4988.
9. Qo'ldoshev A. R. et al. Forming Writing Skills in Left-Handed Students //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 10. – №. 1.